



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITI V AGRAPNOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZEL'ENNOY EKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
Abdullaeva Zaynab Ruslanovna	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ ИQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELИ ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQRISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQRISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEХANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhriddin Husniddin o’g’li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIЈAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
Xannarov Komiljon Karimovich	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
Saidov Suhrob Shodmonovich	
HUDUDIIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
Akbarova Kamola Akmaljonovna	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI	263
Karimov Eminjon Gapardjonovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	270
Shermatov Axror Abdixakimovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	275
Ergash Bobobekov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	281
Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	285
Qurbonova Rahima Jamshedovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	302
Usmanova Zumrad Islamovna	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS	306
Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	312
Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li	



BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror turizm rivojlanishiga erishishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va imkoniyatlari o'rganilgan. Xususan, raqamlashtirishning turizm sohasida barqarorlikni ta'minlashdagi roli, onlayn platformalar va mobil ilovalarning sayyohlar xulq-atvoriga ta'siri hamda O'zbekiston turizm sektorining raqobatbardoshligini oshirishdagi ustuvor yo'nalishlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarni strategik jihatdan qo'llash barqaror turizmni rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: barqaror turizm, raqamli texnologiyalar, ekologik turizm, onlayn platformalar, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article examines the importance and potential of using digital technologies in achieving sustainable tourism development. In particular, it analyzes the role of digitalization in ensuring sustainability in the tourism sector, the impact of online platforms and mobile applications on tourist behavior, and the priority directions for enhancing the competitiveness of Uzbekistan's tourism sector. The research findings show that the strategic application of digital technologies is an important factor in the development of sustainable tourism.

Key words: sustainable tourism, digital technologies, eco-tourism, online platforms, competitiveness.

Аннотация. В данной статье исследуются значение и возможности применения цифровых технологий в достижении устойчивого развития туризма. В частности, анализируются роль цифровизации в обеспечении устойчивости туристической отрасли, влияние онлайн-платформ и мобильных приложений на поведение туристов, а также приоритетные направления повышения конкурентоспособности туристического сектора Узбекистана. Результаты исследования показывают, что стратегическое применение цифровых технологий является важным фактором развития устойчивого туризма.

Ключевые слова: устойчивый туризм, цифровые технологии, экологический туризм, онлайн-платформы, конкурентоспособность.

KIRISH

Sayohat bugungi kunda inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Global muammolar va xavfsizlik bilan bog'liq tahdidlar mavjud bo'lishiga qaramay, insonlarning sayohat qilishga bo'lgan qiziqishi saqlanib qolmoqda. 2024-yilda dunyo bo'ylab taxminan 1,52 milliard kishi sayohat qilgan (UNWTO, 2024). Shu bilan birga, turizm iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki resurslardan foydalanish hajmining ortishi va atrof-muhitga yuklamaning kuchayishi kabi masalalarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, energiya sarfining oshishi, ekologik muvozanatga ta'sir va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlar turizm faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Sayyohlar oqimining ortishi ayrim hududlarda infratuzilmaga bosim kuchayishiga hamda mahalliy aholi turmush sifatiga ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'lmoqda.

Turizmning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikka ta'sirini muvozanatlashtirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) 2017-yilni "Barqaror turizmni rivojlantirish yili" deb e'lon qilgan hamda jamiyatni barqaror turizm tamoyillari asosida sayohat qilishga undagan. Tadqiqotchilar turizm xizmatlari hajmining tez sur'atlarda kengayishi barqaror rivojlanishni ta'minlash zaruratini yanada kuchaytirayotganini ta'kidlamoqda. Hozirgi davrda turizmning jadal rivojlanishi zamonaviy va samarali boshqaruv yondashuvlarini talab etmoqda.

Mazkur jarayonlarda raqamli texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Aqlli tizimlar, katta ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va raqamli platformalar orqali turizm oqimlarini samarali boshqarish, resurslardan oqilona



foydalanish hamda ekologik yuklamani kamaytirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu jihatdan, raqamli yechimlar turizmni barqaror rivojlantirish strategiyasining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Mazkur maqolada barqaror turizm rivojlanishiga erishishda raqamli texnologiyalarning roli, turizm sektorining raqobatbardoshligini mustahkamlash hamda sayyohlik manzillarining barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha asosiy yondashuvlar yoritilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanish mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy konsepsiyalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, turizm zamonaviy jamiyatga sezilarli iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim tarmoqlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotchilar tomonidan barqaror turizm tushunchasi turlicha talqin etilgan. UNWTO ta'rifiga ko'ra, barqaror turizm — bu hozirgi va kelajak avlodlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan muvozanatli turizm rivojlanishini ta'minlovchi faoliyatdir [1].

Xorijiy va mahalliy olimlarning barqaror turizm sohasidagi tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarning ahamiyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, UNWTO ma'lumotlarida aqlli turizm texnologiyalarining to'rtta asosiy xususiyati ajratib ko'rsatilgan: axborot berish, qulaylik, interaktivlik va individuallik [2]. Mazkur xususiyatlar turistlarning raqamli texnologiyalar asosidagi sayohatdan oladigan qulaylik va samaradorlik darajasini belgilaydi.

Raqamli turizm sohasida bir qator yetakchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Buhalis va Amaranggana (2014) aqlli turistik manzillar konsepsiyasini ishlab chiqib, raqamli texnologiyalar turistik tajribani boyitish hamda manzilning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynashini asoslab bergan. Law, Buhalis va Cobanoglu (2014) esa mobil texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning turizm sanoatini transformatsiya qilish jarayonini tahlil qilib, sayyohlar qarorlarini qabul qilishda raqamli kanallarning ahamiyati ortib borayotganini aniqlaganlar. Gretzel va boshqalar (2015) aqlli turizm ekotizimlarini shakllantirishda "Narsalar internet" (IoT), katta ma'lumotlar (Big Data) va bulutli hisoblash texnologiyalarining o'rnini o'rganib, ularning samarali va barqaror boshqaruv uchun muhim vosita ekanligini ko'rsatganlar.

Klasterlar — bir hududda joylashgan, o'zaro yaqin hamkorlik qiluvchi, umumiy natijalarga yo'naltirilgan va bir-birini to'ldiruvchi kompaniya hamda tashkilotlar tarmog'i sifatida — turizm sohasida barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda [3]. Innovatsiyalar esa kompaniyalarning samarali tashkiliy shakllarda faoliyat yuritishini ta'minlab, ularning raqobat ustunligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham barqaror turizm va raqamli texnologiyalar mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar izchil rivojlanib bormoqda. Milliy tadqiqotchilar turizm sohasidagi raqamlashtirish jarayonlari va ularning barqaror rivojlanishga ta'sirini alohida o'rganishga e'tibor qaratmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni barqaror turizm strategiyalariga integratsiyalash bo'yicha ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish zarurati mavjud [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda induksiya, deduksiya, taqqoslash va statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Ma'lumotlar bazasi sifatida UNWTO hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va ma'lumotnomalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari, ilmiy maqolalar hamda sohaviy tadqiqot natijalari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm dunyo iqtisodiyotining eng yirik tarmoqlaridan biri bo'lib, global miqyosda har 10 ta ish o'rnidan birini (350 milliondan ortiq) ta'minlaydi hamda jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizdan ortiq qismi aynan ushbu tarmoq hissasiga to'g'ri keladi. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda sayohat va turizm sohasi 4 foizlik o'sishni qayd etib, COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda yuqori natijalarga erishgan. Dunyoda so'nggi besh yil ichida yaratilgan har beshta yangi ish o'rnidan biri aynan turizm sohasi bilan bog'liqdir.

Barqaror turizm tushunchasi, asosan, turizm faoliyatining ekologik jihatlarini muvozanatli rivojlantirish bilan bog'liq. So'nggi tadqiqotlar natijalariga ko'ra, turizm global miqyosdagi karbonat anhidrid (CO_2) chiqindilarining taxminan 8 foiziga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, barqaror turizmni rivojlantirish bo'yicha qator yo'riqnomalar va strategiyalar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni amaliyotga keng tatbiq etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Turizm sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish turistlar uchun ma'lumotlarni izlash va olish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi. Internet, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali sayohat tajribasini ommalashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Natijada, turizm xizmatlarining raqamlashtirilishi nafaqat xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi, balki turistik manzillarning raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi.



Turizm sohasida qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalar qatoriga interaktiv veb-saytlar, onlayn bron qilish tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar kiradi. Ushbu texnologiyalarning asosiy maqsadi — axborot almashinuvi samaradorligini oshirish, hamkorlikni kuchaytirish hamda avtomatlashtirilgan xizmatlar orqali mehnat unumdorligini yaxshilashdan iborat. Google qidiruv tizimi statistikasi shuni ko'rsatadiki, sayohatni rejalashtirayotgan foydalanuvchi o'rtacha 100 dan ortiq qidiruvni amalga oshiradi va sayohatlarning deyarli 75 foizi onlayn tarzda rejalashtiriladi. Bu esa turizmda onlayn xizmatlar bozorining yuqori rivojlanish salohiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Raqamlashtirishning turizm sohasiga ta'siri bir nechta yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda. Jumladan, global integratsiya jarayonlarining jadallashuvi, yangi savdo kanallarining shakllanishi, xizmat ko'rsatishda avtomatlashtirish orqali sifatning oshishi, internet orqali ochiq va tezkor faoliyat yuritish imkoniyati hamda mobil ilovalar yordamida xizmatlarni takomillashtirish shular jumlasidandir. Barqaror turizm nuqtai nazaridan qaralganda esa raqamli texnologiyalar energiya sarfini monitoring qilish, chiqindilarni boshqarish va turistlar oqimini muvofiqlashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'ylab sayyohlarning asosiy qismini 30–50 yosh oralig'idagi hamda 65 yoshdan yuqori bo'lgan aholi qatlamlari tashkil etadi. Kelgusida sayyohlar sonining muntazam ortib borishi va ularda katta yoshdagi aholining ulushi ko'payishi kutilmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga borib 60 yoshdan yuqori aholi soni 2016-yilga nisbatan ikki baravar ortishi prognoz qilinmoqda. Bu jarayonda Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda keksa yoshdagi aholi ulushi yuqori bo'lishi kutiladi.

Mazkur demografik o'zgarishlar turizm sohasida yangi xizmat turlarini, ayniqsa keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay xizmatlarni rivojlantirishni talab etmoqda. Raqamli texnologiyalar ushbu ehtiyojlarni qondirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, mobil ilovalar, maxsus platformalar va individual yo'nalishlar asosidagi xizmatlar katta yoshdagi sayyohlar uchun yanada qulay va xavfsiz sayohat muhitini yaratmoqda.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida turizm, ayniqsa, kichik biznes va xizmatlar sohasini rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarga alohida e'tibor qaratilgan. 2019–2025-yillarga mo'ljallangan turizmni rivojlantirish konsepsiyasida esa turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylantirish maqsadi belgilangan. Mazkur strategik hujjatlarda 2030-yilga borib mamlakatda turizm eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazish, 15 milliondan ortiq xorijiy va 25 million ichki sayyohlarni jalb etish vazifalari ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda turizm tarmog'ini raqamlashtirish bo'yicha ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019-yilda "Visit Uzbekistan" milliy turistik portali ishga tushirilgan bo'lib, u xorijiy va mahalliy sayyohlarga mamlakatdagi turistik manzillar, mehmonxonalar va xizmatlar haqida yagona raqamli ma'lumot bazasini taqdim etadi. Shuningdek, "Elektron turizm" tizimi doirasida onlayn viza arizalarini topshirish va hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonlari yo'lga qo'yilgan.

2023-yilda O'zbekistonda "Aqlli turizm" dasturi qabul qilinib, uning doirasida sayyohlik manzillariga QR-kodlar o'rnatish, augmented reality (AR) texnologiyalariga asoslangan turistik marshrutlarni yaratish hamda sun'iy intellekt asosidagi chatbot-yo'riqnomalarni ishlab chiqish rejalashtirilgan. Bu borada Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari pilot hududlar sifatida tanlab olingan.

Odatda xorijiy turistlarning asosiy e'tibori turistik manzilning iqtisodiy rivojlanish darajasidan ko'ra, ekologik va ijtimoiy-madaniy omillariga qaratiladi. Aynan shu omillar mamlakatga turistlar oqimini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Bunda raqamli texnologiyalar tashrif buyuruvchilarning turistik manzil haqidagi tasavvurini shakllantirish, ma'lumot almashish va xizmatlar sifati bo'yicha ijobiy tajriba yaratishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Barqaror turizm rivojlanishining raqobatbardoshlik, ekologik va ijtimoiy jihatlarini takomillashtirish innovatsiyalarni joriy etish, barqaror iste'mol tamoyillariga amal qilish, nogironligi bo'lgan shaxslar va keksalar uchun yangi turizm xizmatlarini yaratish hamda mahalliy aholi farovonligi va ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda raqamli texnologiyalar muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Barqaror turizmga erishishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchiidan, turizm sektorida raqamli platformalar va aqlli texnologiyalarni barqarorlik monitoringi hamda boshqaruv tizimlariga integratsiyalash, shuningdek, turizm klasterlarining raqamli infratuzilmasini rivojlantirish orqali tarmoq ishtirokchilari o'rtasida samarali ma'lumot almashinuvi tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Ikkinchiidan, o'zgarib borayotgan demografik tarkibni hisobga olgan holda, ayniqsa keksalar va imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun raqamli turizm xizmatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, shaxsiylashtirilgan va inklyuziv turizm mahsulotlarini yaratishda sun'iy intellekt hamda katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan samarali foydalanish lozim.



Uchinchidan, O'zbekiston turizm sektorida barqaror rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari — iqlim o'zgarishini yumshatish, ekologik holatni yaxshilash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda chiqindilarni samarali boshqarish kabi yo'nalishlarni raqamli vositalar orqali monitoring qilish va jamoatchilikka ochiq e'lon qilish tizimini shakllantirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNWTO. Making Tourism More Sustainable: A Guide for Policy Makers. – Madrid: World Tourism Organization, 2005. – 220 p.
2. Dimitrios Buhalis, Aditya Amaranggana. Smart Tourism Destinations // Information and Communication Technologies in Tourism. – Springer, 2014. – P. 553–564.
3. Michael E. Porter. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
4. O'zbekiston Respublikasining 2019–2025-yillarga mo'ljallangan turizmni rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
5. UNWTO. World Tourism Barometer. – 2024. – Vol. 22. – Iss. 3.
6. Monika Dieterich. Sustainable Development as a Driver for Innovation and Employment // International Journal of Innovation and Sustainable Development. – 2018. – Vol. 12. – No. 1–2.
7. [Google Travel Insights](#). Travel Search Trends. – 2023.
8. United Nations. World Population Ageing 2023. – New York: UN, 2023.
9. Ulrike Gretzel, Marianna Sigala, Zheng Xiang, Chulmo Koo. Smart Tourism: Foundations and Developments // Electronic Markets. – 2015. – Vol. 25. – P. 179–188.
10. Rob Law, Dimitrios Buhalis, Cihan Cobanoglu. Progress on Information and Communication Technologies in Hospitality and Tourism // International Journal of Contemporary Hospitality Management. – 2014. – Vol. 26. – No. 5.
11. Manfred Lenzen va boshqalar. The Carbon Footprint of Global Tourism // Nature Climate Change. – 2018. – Vol. 8. – P. 522–528.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
